



## **BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA O‘QISH SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI**

**Mavlonova Klaraxon Maxmudovna,**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori,  
pedagogika fanlari doktori*

**Abdijamilova Mahfuza Mahmudovna,**

*Nukus davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15206482>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini shakllantirish, bu jarayonga ta’sir etuvchi omillar, o‘qish savodxonligini shakllantirish jarayoni uchun matn tanlash mezonlari, PIRLS xalqaro baholash dasturida foydalaniladigan matnlarga qo‘yilgan talablar xususida so‘z boradi.

*Kalit so‘zlar:* boshlang‘ich ta’lim, o‘qish savodxonligi, PIRLS xalqaro baholash dasturi, matn turlari, mutolaa, matn tanlash mezonlari.

Jahonda ta’lim oluvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda endilikda “o‘qish” atamasini boshlang‘ich sinfda egallanadigan harflarni tanib olish bilan bog‘liq qobiliyat sifatida emas, balki o‘quvchining o‘qib tushunish orqali boshqa fanlarni o‘zlashtirishi, tayanch kompetensiyalarni egallashi uchun xizmat qiladigan muhim qobiliyatni ifodalovchi tushuncha deb baholash qabul qilingan bo‘lib, mazkur yo‘nalishning nazariy masalalari tadqiq etilmoqda.

Funksional savodxonlik ko‘nikmasi o‘quvchida yillar davomida rivojlanib boruvchi ko‘nikma bo‘lib, u o‘qish savodxonligini rivojlantirish bilan bog‘liq mashq va topshiriqlarni bajarish jarayonida yanada takomillashib boradi. O‘qish nutqiy va aqliy jarayonlarning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyati natijasidir.

Mutaxassislar “bolani ona tili xazinalariga ongli ravishda yetkazish” zarurati, “o‘qish tezligi”ni emas, balki “tushunish tezligi”ni rivojlantirish bilan o‘lchanishi, bunda mustaqil o‘qish mashqlari muhimligini ta’kidlashadi [1].

“O‘qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatidir” [2]. Ko‘rinadiki, endilikda o‘qish savodxonligi shunchaki boshlang‘ich ta’lim jarayonida savodxonlik jarayoni (alifboni o‘rganish) bilan bog‘liq bo‘lgan tor doiradagi tushuncha emas. PIRLS xalqaro baholash dasturining asosiy maqsadi o‘qish savodxonligini shakllantirish orqali o‘quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o‘qishining keng qamrovli vazifasi asosida, ya’ni badiiy tajriba orttirish, muallifning



nuqtayi nazari, matnda qo‘llangan badiiy tasvir vositalarini aniqlash, ularning vazifasini tushunish, matnda berilgan voqea-hodisalarga nisbatan munosabatini ifodalay olish, undagi ma‘lumotlarni kelajak hayotning qaysidir jabhasida qo‘llay olish bilan bog‘liq juda zarur hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.

O‘qish savodxonligining qay darajada shakllanganiga oid 2018-yilda olib borilgan tahlillar natijasi o‘rganilganda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi bilan bog‘liq eng yuqori natijani rossiyalik o‘quvchilar ko‘rsatgani aniqlangan. Ushbu masala tadqiqi shug‘ullangan Rossiyaning ta‘limni rivojlantirish strategiyalari instituti boshlang‘ich ta‘lim laboratoriyasi tadqiqotchisi M.Kuznetsova izlanishlari natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining PIRLS xalqaro baholash dasturida yuqori natijalarni qo‘lga kiritishiga quyidagi omillar ta‘sir ko‘rsatganini ta‘kidlaydi [3]:

– o‘quvchilarda mavjud bo‘lgan o‘qish savodxonligi qobiliyatiga nisbatan yuqori baho berish, uning qay darajada muhim ko‘rsatkich ekanini anglab yetish;

– maktabgacha tayyorgarlikning yaxshi olib borilgani, o‘qish savodxonligini shakllantirish jarayonlarida ota-onalarning ishtiroki (maxsus ko‘rik-tanlovlar, maxsus xonalarning ajratilgani, butun Rossiya davlati bo‘yicha “Kitobxon ona” loyihasining amalga oshirilishi);

– o‘qish savodxonligiga barcha fanlarni o‘zlashtiruvchi kalit sifatida qarash hamda shu asosda o‘quv dasturlarini ishlab chiqish;

– o‘qish savodxonligini shakllantirishga yo‘naltirilgan metodik qo‘llanma va darsliklarning ishlab chiqilgani;

– o‘qish savodxonligida muammosi bo‘lgan o‘quvchilar bilan alohida metodik tadbirlarning amalga oshirilgani.

M.I.Kuznetsova yuqori natijalarni qo‘lga kiritishda ta‘lim mazmunidan quyidagilar ham o‘rin olishini maqsadga muvofiq deb hisoblaydi:

1. Tanlangan matnning o‘qish ko‘nikmasini shakllantirishning maqsadlariga mos kelishi.

2. Muhim va ikkinchi darajali axborotlarni o‘zaro farqlash.

3. Grafik va yozma matnlar o‘rtasidagi aloqadorlikni aniqlash.

4. Matnda berilgan ma‘lumotlarni kundalik hayotga talqin qila olish, foydalanish.

5. Matnning uslubi va strukturasi o‘ziga xosliklarni tahlil qilish.

6. Refleksiv analiz qilish, o‘zida mavjud bo‘lgan ma‘lumotlar bilan matnda berilgan ma‘lumotlarni o‘zaro bog‘lay olish.

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Tilni o‘qitish darslarida o‘qib tushunish malakasini shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar tadqiqotchilarni qiziqtirgan masala bo‘lib, bu jarayonni tashkillashtirishga oid ko‘rsatmalarni M.A.Pinskaya, T.V.Timkova va O.L.Obuxovalarning ishlarida uchratish mumkin [4]. Shuningdek, ushbu jarayonga ta’sir etuvchi omillarning kengroq tahlili I.D.Fruminaning qo‘llanmasi[5]da ham mavjud bo‘lib, uning fikriga ko‘ra, o‘qish savodxonligini shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar quyidagilardan iborat:

- maktabning mavqei;
- o‘qituvchining mavqei;
- o‘quvchining mavqei.

N.N.Svetlovskaya tadqiqotida o‘qish savodxonligini shakllantirishning nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqib, unda kitob bilan muloqotning o‘ziga xos qonuniyatlari borligi, mutolaa jarayonida muayyan maqsadni belgilab olish, mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirib borish kerakligini ta’kidlaydi. Shuningdek, mazkur tadqiqotda o‘qish savodxonligi bilan bog‘liq ko‘nikmalar, albatta, maxsus ko‘rsatmalar asosida shakllanishi haqida salmoqli fikrlarni keltiradi. Kitobni mustaqil shaklda mutolaa qiluvchining har birida turli vaziyatlarda qanday mazmundagi kitobga murojaat qilish, dunyoda ushbu mavzuga oid qanday kitoblar borligi haqida ma’lumotga ega bo‘lish, bir nechta variantlar ichidan to‘g‘ri tanlovni amalga oshira olish, kitob mazmunini o‘qish, uning mazmuni va g‘oyasini anglash muhim ko‘rsatmalar sirasida keltiriladi.

Haqiqatan ham, o‘qish savodxonligini shakllantirish alohida yondashuvni talab qiluvchi jarayon bo‘lib, uning samarali kechishi nafaqat maqsadli metodik tadbirlarning tashkillashtirilishi, balki o‘quvchi, o‘qituvchi va matn bilan bog‘liq bir qator muhim omillar ta’sirida ro‘y beradi.

O‘rganilgan manbalar asosida o‘qish savodxonligini shakllantirish jarayoniga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sirasiga quyidagilarni keltirish mumkin:

- fan bo‘yicha tuzilgan o‘quv dasturlarining hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgani;
- ta’lim mazmuni va maqsadlari asosida ota-onalarning o‘qish savodxonligini shakllantirish jarayoniga jalb etilgani;
- ta’lim jarayoni olib boriladigan joy (maktab, sinfxonasi, kutubxona)da jonli o‘quv muhitini shakllantirish uchun yetarlicha sharoitning mavjudligi (Bunda bolalar uchun yozilgan asarlar ko‘rgazmasi, turli soddalashtirilgan diagrammalardan iborat devoriy gazetalar, plakatlar, sinf uchun yaratilgan kutubxonalar nazarda tutilmoqda);

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



- o‘qituvchi faoliyati davomida o‘qish savodxonligini shakllantirishga qaratilgan ta’lim strategiyalaridan unumli foydalanishi;
- o‘qish savodxonligini shakllantirish maqsadida yaratilgan qo‘shimcha qo‘llanmalardan foydalana olish;
- to‘g‘arak mashg‘ulotlarida ushbu ko‘nikmani shakllantirish bilan bog‘liq majmuaviy shakldagi matn va matn uchun tayyorlangan topshiriqlardan foydalana olish;
- o‘qish savodxonligiga oid ko‘nikmalarning shakllanganlik darajasini muntazam ravishda nazorat qilish va monitoring natijalarini kuzatib borish;
- o‘qish savodxonligini shakllantirish jarayonida o‘quvchilarga matn va undan foydalanish usullarini o‘rgatib borish;
- har bir o‘quvchining uyida shaxsiy kutubxonasining bo‘lishiga erishish;
- maktabgacha ta’lim davridayoq o‘qish bilan bog‘liq ayrim ko‘nikmalarni shakllantirish;
- o‘quvchilarda o‘qishga bo‘lgan qiziqishni rag‘batlantirish;
- o‘qish savodxonligini sinashga qaratilgan turli tanlov va tadbirlarni tashkillashtirish hamda ularga o‘quvchilarni jalb etish.

Mavzu bilan bog‘liq manbalar o‘rganilganda har qanday ta’lim vositasini tanlashning o‘ziga xos mezon mavjud bo‘lganidek, matn tanlashda ham e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan jihatlar mavjud. Bunda quyidagilarni hisobga olish kerakligi alohida ta’kidlanadi:

- o‘quvchilarning mavjud bilim darajasi;
- matnning hajmi va mazmuni;
- ushbu matn orqali qaysi ko‘nikmani shakllantirish maqsad qilib olingani;
- darsning umumiy maqsadi va ushbu maqsadning qancha qismi o‘qish savodxonligini shakllantirishga qaratilgani;
- o‘quvchilarning yoshi, jinsi, millati, qaysi mamlakatda istiqomat qilayotgani, qiziqishlari;
- matnning uslubi va ushbu uslub bilan bog‘liq savol va topshiriqlarni ishlab chiqa olish imkoniyatining borligi [6].

PIRLS xalqaro baholash dasturida ham tanlangan matn uchun ma’lum me’yorlar ishlab chiqilgan bo‘lib, unga ko‘ra xalqaro tadqiqotlar uchun taqdim etilgan matnlar quyidagi mezonlar asosida tanlab olinadi:

- aniqlik va ravonlikning ta’minlanganlik;



- muayyan bir mamlakat, undagi madaniyat bilan bog‘liqlik darajasi yuqori bo‘lmaganlik;
- butun dunyo mamlakatlarining belgilangan yoshdagi o‘quvchilarining qiziqishlariga mos keluvchanlik;
- tushunish jarayonlari(tushunish, mulohaza yuritish, munosabat bildirish, qo‘llay olish)ning barcha jihatlarini o‘zida qamrab olish imkoniyatining mavjudligi [7].

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ona tili va o‘qish savodxonligi fani o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirishda keng imkoniyatga ega bo‘lib, ushbu darslarda o‘quvchilar bilan muayyan bir matn ustida ishlash, undagi ma‘lumotlarni tahlil qilish, matnning til xususiyatlarini hisobga olgan holda badiiy tajriba orttirish va axborotlar bilan ishlash ko‘nikmasi shakllantiriladi; o‘qib tushunish malakasini shakllantirish jarayoni ko‘p jihatdan fan bo‘yicha tuzilgan o‘quv dasturlarining hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgani, o‘qituvchi o‘z faoliyati davomida o‘qish savodxonligini shakllantirishga qaratilgan ta‘lim strategiyalaridan unumli foydalanishi, o‘quvchilarda o‘qishga bo‘lgan qiziqishni rag‘batlantirish kabi bir qancha omillar bilan uzviy bog‘langan; o‘qib tushunish malakasini shakllantirishda matn tanlash muhim jarayon hisoblanib, unda matn mazmuni: badiiy yoki axborot matni, matn shakli, o‘quvchining yoshi va qiziqishlari, psixologik holatining hisobga olingani, imkon qadar oldindan tanish bo‘lmagan matnning tanlangani, o‘rganilayotgan til hodisasining qay darajada aks etgani, dastur asosida berilgan va ayni vaqtda o‘rganilayotgan nutqiy mavzu doirasida bo‘lishi kerakligini inobatga olinishi zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Львов М.Р. Методика преподавания русского языка в начальных классах // В.Г. Горещкий, М.Р. Львов, О.В. Сосновская. – М.: Академия, 2012.
2. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: Sharq, 2019.
3. Кузнецова М.И. Особенности формирования читательской грамотности в контексте международного сравнительного исследования PIRLS–2021. Материалы конференции. – М., 2020.
4. Фрумина И.Д. Неожиданная победа: российские школьники читают лучше других / под науч. ред. – М.: Высшей школы экономики, 2010.
5. Пинская, М. А. Тимкова, Т. В. Обухова, О. Л. Может ли школа влиять на уровень читательской грамотности младших школьников? // Вопросы образования. – 2009. – № 2. – 87–108 с.

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



6. <https://pirls2021.org/frameworks/home/reading-assessment-framework/selecting-pirls-passages-and-epirls-online-texts/>
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/chitatelskaya-gramotnost-mladshih-shkolnikov-respubliki-kazahstan-v-sovremennyh-usloviyah>

